

**Ishning maqsadi:** qiya tekislik va undan nima maqsadda foydalanishni o'rganish. Qiya tekislikda jismni ko'tarishda bajariladigan foydali va to'la ishlarni hamda qiya tekislikning foydali ish koeffitsiyenti haqidagi bilimlarni mustahkamlash. Xatoliklarni hisoblash ko'nikmasini shakllantirish.

**Kerakli asbob va materiallar:** uzun yupqa taxta, qisqichli shtativ, yog'och brusok, chizg'ich, yuklar to'plami, dinamometr (1.35-rasm).

#### Ishni bajarish tartibi

1. Yupqa taxta shtativga mahkamlanadi. So'ng qiya tekislik uzunligi ( $l$ ) va balandligi ( $h$ ) chizg'ich yordamida o'lchab olinadi (1.36-rasm).

2. Dinamometr yordamida yog'och brusokning og'irligi  $P$  aniqlab olinadi (1.37-rasm).

3. Brusokni qiya tekislikka qo'yib, uni dinamometr yordamida qiya tekislik bo'ylab  $F$  kuch bilan bir tekisda tortamiz (1.38-rasm).

4.  $A_t = Fl$  formulasi yordamida to'la,  $A_f = Ph$  formulasi yordamida esa foydali ishlar hisoblanadi.

$$5. \eta = \frac{A_f}{A_t} \cdot 100\% \text{ ifoda yordamida qiya tekislikning foydali ish koeffitsiyenti hisoblanadi.}$$


*Tajriba kamida uch marta takrorlanadi, natijalar jadvalga yoziladi.*

Nº	$l, \text{m}$	$h, \text{m}$	$F, \text{N}$	$P, \text{N}$	$A_t, \text{J}$	$A_f, \text{J}$	$\eta, \%$
1							
2							
3							


Tajribani qiya tekislikning har xil balandliklari uchun o'tkazib, foydali ish koeffitsiyenti qiya tekislik burchagiga bog'liqligi haqida xulosalar chiqariladi.

#### Uyga vazifa


Uyingizda dinamometrli tarozi yordamida yuqoridagi tajribani o'tkazib ko'ring.




1.35-rasm



1.36-rasm



1.37-rasm



1.38-rasm

1. Qiya tekislik qanday qurilma va qanday maqsadda foydalilanadi?
2. Qiya tekislikda jismni ko'tarishda bajariladigan foydali va to'la ishlarni qanday aniqlanadi?

3. Foydali ish to'la ishdan kam bo'lishining sababi nimada?
4. Qiya tekislikning foydali ish koeffitsiyenti uning qiyalik burchagiga bog'liq ekanini qanday tushuntirasiz?
4. Ko'chmas blok orqali erkin tushish tezlanishini aniqlasa bo'ladimi?

